



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

"SUV VA INSON SALOMATLIGI"
talabalar ilmiy-amaliy anjumani

*Научно-практическая конференция студентов
“ВОДА И ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА”*



TOSHKENT – 2023

"Suv va inson salomatligi" talabalar ilmiy-amaliy anjumani

Qirg'izistonda 85 foiz, Tojikistonda esa 91 foiz elektr energiyasi gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqarilmoxda. Suv resurslarining qisqarishi bu mamlakatlarda elektr taqchilligining kuchayishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Taqqoslash uchun, GESlarning energiya ta'minotidagi ulushi O'zbekistonda 15 foizni, Qozog'istonda 10 foizni tashkil etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, transchegaraviy suvdan foydalanan masalasi bo'yicha barqaror va tomonlar uchun birdek foydali bo'lgan yangi kelishuvga erishish muhim ahamiyatga ega.

Iqlim o'zgarishi. Markaziy Osiyoda so'nggi yillarda g'ayritabiyy issiq havo yangi me'yorga aylanib, har qachongidan ham issiq kunlar kuzatilmoqda. Havo haroratining oshishi suv tanqisligini oshiradigan asosiy omillardan biridir. Mintaqaning asosiy suv manbai qor va muzliklardir, lekin uning katta qismi qor tufayli hosil bo'ladi. Tog'lar qishki qor evaziga yoz mavsumi uchun suv saqlash vazifasini ham bajaradi. Qor ko'rinishidagi yog'ingarchilik miqdorining kamayishi muammoni yanada kuchaytirib, yoz mavsumi uchun suvni saqlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Natijada, asrlik muzliklarning qisqarish tendentsiyasi davom etmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, oxirgi 40 yilda Tojikistonda 8 mingdan ortiq muzlik maydonining 30 foizi, Qirg'izistondagi 10 mingga yaqin muzlik maydonining 16 foizi erib ketgan. Shu bilan birga, keyingi 20-30 yilda mintaqada yog'ingarchilik miqdori ham sezilarli darajada kamaydi.

O'ZBEKISTON AHOLISINI SIFATLI ICHIMLIK SUVI BILAN

TA'MINLASH MUAMMOLARI VA YECHIMI

**Tashpulatova M.N., TTA Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasи
assistanti, PhD**

**Seydaliyeva B.S., TTA Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti 3-
kurs talabasi**

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash va suv inshootlarini barpo etish bo'yicha qarorlarida suv ta'minotini sifatli va to'liq amalgaga oshirish boyicha qator vazifalar belgilangan.

Tadqiqot maqsadi: O'zbekiston aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash, shuningdek suv bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari: Biosferadagi suv resurslarining zaxirasi juda katta bo'lib, u qariyb 1.5 mlrd.km³ ga teng. Okean yuzasidan yiliga 116-124 sm qalinlikdagi suv bug'lanadi va ular yuzasiga 107-114 sm qalinlikda yog'in yog'adi. O'zbekiston Respublikasining asosiy suv arteriyalari: Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Chirchiq, Ohangaron. Bu daryolarda oqadigan suv umumiy suv hajmining 10 km³ni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida suvning yillik sarfi 62-65 km³ bo'lib, bu suvning 25 km³ Amudaryoga tog'ri keladi. Suv bilan bog'liq muammolar umuminsoniy muammolarga sabab bo'lmoqda. Bu muammolarga asosiy sabab Orol dengizi muammosi, chuchuk suv zaxiralarning

“Suv va inson salomatligi” talabalar ilmiy-amaliy anjumani

kamayib borayotganligi, Amudaryo va Sirdaryo suvlarining to‘laligicha sug‘orish maydonlariga sarflanishi, suv manbalarining oqava suvlar bilan ifloslanishi, ishlab chiqarish korxonalarda sarflanayotgan suvning miqdori ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga nisbatan bir qancha ko‘p bo‘lishi va boshqalar.

Ushbu muammolarni ijobiy hal etish uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish, suvni tejash texnologiyalarini va yangi sug‘orish texnikalarini keng joriy qilish, suv miqdori ortiqcha hududlardagi suvni qayta taqsimlab suv tanqis hududlarga yetqazib berish, sho‘r suvlarni sho‘rsizlantirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni bosqichma-bosqich joriy etish, ichimlik suvi ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini o‘zi to‘liq qoplaydigan suv ta‘minoti bilan ishslash maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda suv sarfini nazorat qilish maqsadida suv inshootlari, magistral suv tarmoqlari, mahalla va ko‘cha boshlariga suv hisoblagichlar joylashtirilmoqda. Orol va orol bo‘yi muammosini ijobiy hal etishda asosiy e‘tiborni, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga markazlashgan holda yetkazib berish bilan hududning sanitar epidemiologik ahvolini yaxshilashga, yer osti chuchuk suv manbaidan foydalanishga, Orolni qurigan hududlarida saksovulzor barpo etish natijasida qum ko‘chishi, chang ko‘tarilishini oldini olish va boshqalar amalga oshirilmoqda.

Xulosa: O‘zbekiston Respublikasida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash muammolari, suv ta‘minoti infratuzilmasining yetarli emasligi, suvni tozalashda eski texnologiyalardan foydalanish, suv havzalarini ifoslantiruvchi manbaalarning ko‘pligi bilan bog‘liq. Muammoni hal qilish uchun suv ta‘minoti tizimini modernizatsiya qilish, suvni tozalashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish zarur. Shuningdek, suv resurslarini muhofaza qilish, suv havzalarini ifloslanishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

SUVDAGI pH QIYMATINI INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI

**Tashpulatova M.N., TTA Kommunal va mehnat gigiyenasi kafedrasи
assistanti, PhD**

**Narzullayeva U.Sh., TTA Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti
3-kurs talabasi**

Biz nima uchun suvning pH qiymatini bilishimiz muhim? Ichimlik suving pH qiymatini bilish biz uchun juda muhimdir. Inson tanasi taxminan 60% suvdan iborat. Shunday qilib, tana vazni 80 kg bo‘lgan katta yoshli odamda 48 kg suv bor. Bu bizga doimo ko‘p suv ichishni talab qilishni sabablaridan biri. Lekin har qanday suv emas. pH darajasining 7,4 bo‘lishi salomatlik uchun optimal bo‘lib hisoblanadi. Biz ichgan har bir tomchi suv va yegan mahsulotimiz kislotali yoki ishqoriydir. Bu organizmni pH darajasiga ta’sir qiladi. Ushbu ta’sirni tushunishimiz juda muhim. Chunki qonning pH qiymati har doim 7,34 - 7,45 orasida bo‘lishi kerak. Agar bu chegaralar o‘zgaradigan bo‘lsa turli hil patologik holatlar rivojlanishi mumkin. Og‘irlik bo‘yicha eng muhim miqdorda nimani iste’mol qilamiz? Albatta suv. Tananing me’yorda ishlashi uchun kamida 2 litr, issiq havoda esa 4 litr suv kerak. Demak, suv

“Suv va inson salomatligi” talabalar ilmiy-amaliy anjumani

O‘ZBEKISTON AHOLISINI SIFATLI ICHIMLIK SUVI BILAN TA’MINLASH MUAMMOLARI VA YECHIMI	
<i>Tashpulatova M.N., Seydaliyeva B.S.</i>	69
SUVDAGI pH QIYMATINI INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI	
<i>Tashpulatova M.N., Narzullayeva U.Sh.</i>	70
SUV HAVZALARINI IFLOSLANISHIDA ANTROPOGEN OMILLAR	
<i>Tashpulatova M.N., Qambarova L.Sh.</i>	71
MARKAZIY OSIYODA IQLIM O‘ZGARISHI VA SUV RESURSLARI: O‘SIB BORAYOTGAN SUV MUOMMOLARI	
<i>To‘xtaboyeva L.U.</i>	72
RISK FACTOR OF CARBONATED DRINKS	
<i>Turobova Sh.Sh., Gulmurodova M.Sh., Ravshanova M.Z.</i>	74
TURLI IQLIM SHAROITLARIDA SUV ORQALI YUQADIGAN KASALLIKLARNING AHOLI ORASIDA TARQALISHI	
<i>Xabibullayeva X.X.</i>	76
QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV SARFI	
<i>Xamdamova A.E., Urinboyeva N.M.</i>	77
WATER POLLUTION IN THE WORLD: MAJOR CAUSES AND CONSEQUENCES	
<i>Xurramov M.B.</i>	78
OCH QORINGA ICHILGAN SUV ENG YAXSHI SHIFO	
<i>Xodjayev A.Sh,</i>	80
OROL DENGIZI QURISHINING SABAB VA OQIBATLARI	
<i>Yunusova Y.I.</i>	81
ICHIMLIK SUVI SIFATINI YAXSHILASHNING ASOSIY USULLARI	
<i>G’oyibnazarova K.Sh., Kurbanova.Sh.I.</i>	82
ODAM ORGANIZMI UCHUN SUV ICHISHNING FOYDALI TOMONLARI	
<i>Shokirova F.J.</i>	84